



### TURONDAN - TURKISTONGACHA

Safoxon Mirzohidov

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan  
filiali 3-bosqich tarix yo'nalishi talabasi

#### **Annotatsiya:**

Ushbu maqola O'zbekistonning boy tarixiy merosi va Turon hududining rivojlanish bosqichlariga bag'ishlangan. Qadimiy Turon xalqlari, ularning madaniyati, siyosiy tizimlari va davlat tuzilmalarining shakllanishidan tortib, Movarounnahr, Xuroson, Uch Yuzlar va Shayboniylar davlatidan boshlangan tarixi yoritiladi. Amir Temur va Temuriylar davri, shuningdek, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixiy jarayonlarining ta'siri va ularning Rossiya imperiyasi hukmronligiga o'tish jarayoni tafsilotlari keltiriladi. Tadqiqot natijasida Turon xalqlarining buyuk merosi va uning bugungi kungacha bo'lgan ahamiyati haqida muhim xulosalar chiqariladi.

**Kalit so'z:** Turon, O'zbekiston tarixi, Movarounnahr, Xuroson, Shayboniylar davlati, Temuriylar, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, Rossiya imperiyasi, geosiyosiy jarayonlar, tarixiy hududiy o'zgarishlar.

Mustaqil va rivojlanayotgan O'zbekiston qadimiy tarixga boy, buyuk ipak yo'lining assosiy nuqtalarida joylashgan qadimiy Turon hududining katta qismini o'z ichiga oladi. Turon xalqlarining buyukligiga xitob qilib sohibqiron Amir Temur shunday degan : “Biz kim-Mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Biz kim - mamlakatning eng qadimi va eng ulug'i, turning bosh bo'g'inimiz” [3.-B.31]. Haqiqatan, Turon tarixi bundan 3000-2500 yil muqaddam qo'llanilga boshlangan. Turon (ot) (forscha “turon” - turkiylar degan ma'noni anglatadi) -turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni bildiruvchi ijtimoiy, tarixiy-etnik atama. “Turk” so'zi - baquvvat, barkamol, odillil kabi ma'nolarni anglatadi [16.-B.113]. Turon davlatchiligining beshigi sifatida Xorazim, Baqtriya, Qang', Davan, Kushonlar sulolasi, Eftaliylar, Turk xoqonligi keltirilishi mumkin [14.-B.50]. Hudud haqida ilk ma'lumotlar zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lmish “Avesto”da uchraydi [21.-B.15]. Hususan, Yasnaning 3-kitobi va Videvdatning 1-kitobida “Ayronam Vayjo” yoki



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> December, 2024

“Oriylar yurti” shaklida keltiriladi. Bu yurtdan keyin Porutu, Iskata, Mouru, Gova, Sug'da, Xvarizam yurtlari sanab o'tiladi.

Turon - arablar davridan boshlab “Movarounnahr” va “Huroson” deb nomlangan va o'z ichida ikkiga bo'lingan ya'ni Movarounnahr (Daryoning narigi tomoni) va Arodi atturk (Turklar yerlari, ya'ni arablarga bo'ysunmagan hukmdorlar yerlari) [**1.-B.67**]. Arablar Amudaryodan (Jayxun) shimolda joylashgan yerlarga “Movarounnahr”, hozirgi Afg'onistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'gan hududlar esa Xuroson deb yuritilgan [**13.-B.121**]. Tarixiy Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiy, Xorazim-anushyeginiylar xukmronlik qilgan [**20.-B.115**]. Keyingi davrlarda aholi boshiga haddan ziyod og'ir kulfatlar olib kelgan Mo'g'ullar hukmronlik qildi [**17.-B.21**]. So'ngra Turon zamini mo'g'ul istibdodidan keyin, o'z qo'l ostida 27 mamlakatni birlashtirgan Sohibqiron Amir Temur tomonidan boshqarilib, hudud qayta rivojlantirildi [**18.-B.538**]. Hususan, Temuriylar saltanati 1405-1501-yillarda Movarounnahr, 1405-1507-yillarda Xurosonda xukmronlik qildi. Saltanat zaiflashishi natijasida hududlar birin-ketin Shayboniyxon qo'lga o'ta boshladi. 1428-yildan boshlab o'zbeklarga xon bo'lgan Abulxayrxonga urug'dosh hisoblanmish Shayboniyxon 1500-yilda Samarqand, 1507-yilning 20-mayidan boshlab Xurosonni zabt etdi [**4.-B.17**]. Natijada shayboniylarga qarshi chiqqan temuriy shaxzodalardan 12 nafari halok bo'ldi, Shayboniyxon esa Eron shoxi Shox Ismoilga qarshi jangda o'ldirildi.

Movarounnahr va Xuroson temuriylar saltanati parchalangandan so'ng, ma'lum muddat o'tgach qismlarga ajralib ketdi. Ulardan eng yiriklari Uch yuz (Ulug', O'rta, Kichik), Xiva, Qo'qon, Buxoro va Toshkent ancha faol siyosiy jarayonlarni boshqardilar. Uch Yuz borasida faqatgina 1730-yildan boshlab rus manbalari haqida bir to'xtamli javob beriladi [**8.-B.149**]. Ulug' Yuz Toshkent atroflarida, Aavliyoota, Olmaota, Chimkent, Talas va Yettisuv o'lkalarida yashaydigan 11 urug'dan tashkil topgan edi.

Shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etilgan davlati Buxoro xonligi deb ataldi. Shu tariqa Movarounnahrda ikki mustaqil davlat paydo bo'ldi. Buxoro xonligida Shayboniylar 1500-1601-yillarda, 1601-1756-yillarda Ashtarxoniylar, 1756-1920-yillarda Mang'itlar hukmronlik qildi [**5.-B.181**]. Amir Nasrullo hukmronligi davrida



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> December, 2024

amirlik hududi nihoyatda kengaygan bo'lib, Buxoro tarkibiga umumiy hisobda 30 ta viloyat (beklik) kirgan. Ular qatorida Qarshi, G'uzor, Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Boysun, Denov, Sherobod, Hisor, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Shug'non, Rushon, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Qo'badiyon, Kalif, Karki, Burdalik, Qalaqli, Narazm, Chorjo'y, Karmana, Ziyovuddin, Nurota, Xatirchi, Urgut va Samarqand viloyatlari mavjud edi [2.-B.97]. Shuningdek, vaqtincha Jizzax, O'ratepa, Toshkent, Turkiston va boshqa qo'shni hududlar ham amirlikka qo'shib olingan edi.

Buxoro amirligi bilan doimiy ziddiyatda yashagan Xiva xonligi mo'g'ullar davrida bo'lib tashlangan. Goh Samarqand, goh Eron qizilboshlilari bosqiniga duch kelgan Xorazim vohasi Shayboniyxon vafotidan keyin ozodlik harakatini boshlagan. Mang'ishloqdagi ko'chmanchi o'zbeklarining yetakchilaridan biri Elbars 1511-yilda xonlik taxtiga o'tirgan [11.-B.16]. Xususan akademik V.V.Bartold "Xorazm xonligiga asos solinishi, 1511-yilga to'g'ri keladi"-deb yozadi [22.-B.596]. Xonlik poytaxti vazifasini XVI asrning 70-yillaridan boshlab Xiva shaxri bajaradi. Keyingi davrlarda shu sababli Xiva xonligi deb nomlay boshlashdi. Amalda "qo'ng'irotlar" sulolasi 1920-yilgacha xonlikni idora qiladi. Xonlik ma'muriy jihatdan 18 ta bekklik va 2 ta noiblikka bo'lingandi. Ulardan eng yiriklari Hazorasp, Urganch, Qiyot, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Qo'ng'irot hisoblangan.

Xiva va Buxoroda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat og'irlashgan bir davrda, Farg'ona vodiysida ayirmachilik harakatlaridan biri sodir bo'lmoqda edi. Vodiya katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan xojalar jamoasi hokimiyat uchun kurash olib borayotgan paytda, o'zbeklarning ming qabilasi vaziyatni o'z foydasiga hal qilishga imkoniyat tug'ilganligini anglab yetdi. Shu tariqa, 1709-yilda ular o'zlarini Buxorodan mustaqil deb e'lon qildilar [7.-B.15]. Yangi mustaqil davlatning ilk hududlari Targ'ova, Pillaxon, To'qaytepa, Pamok, Tepaqo'rg'on va Qaynar kabi joylardan iborat edi. Minglar sulolasiga asos solib, ular qabila oqsoqollaridan biri Shohruxbiyni xon deb tan olishdi. Natijada, vodiya 1876-yilgacha davom etgan yangi o'zbek davlati shakllandi.

Turkistonning uch xonlikka bo'linishi va o'zaro davom etayotgan ziddiyatlar mamlakatni tom ma'noda siyosiy-iqtisodiy jihatdan kuchsizlantirdi. Natijada kundan-kunga hududini o'zgalar yurti hisobiga kengaytirayotgan Rus imperiyasiga



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> December, 2024

qisqa fursatda taslim bo'ldi. Aynan shu davrda o'lka hattoki mo'g'ullar davrida ko'rilmagan talonchilikni boshidan o'tqazdi. Jumladan, Kavkazda olib borayotgan janglari (1853-1856) chuqur yo'qotishlarga olib kelayotgan bir davrda, Markaziy Osiyo haqida ko'plab ma'lumotlar to'plagan ruslar, endilikda Yevropadagi hududlaran qisqa muddat umid uzgan holda, bor diqqatini O'rta Osiyo xonliklariga qaratdi. Natijada, 1876 yil 16-fevralda rasman Qo'qon xonligi tugatildi, o'rniga Farg'ona viloyati tashkil qilindi. 1873-yil 28-sentabrda Buxoro ruslar tomonidan berilgan "Do'stlik Shartnomasi"ni qabul qildi. Bu shartnoma Buxoroni ruslar tasiri ostida ekanligini anglatar edi. Ruslar Xiva xonli taqdirini 1873-yildan 1920-yilgacha belgiladi.

Qo'qon xonligi 1876-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan tugatilib, uning hududi Turkiston general-gubernatorligiga qo'shildi. Bu ma'muriy-hududiy birlik G'arbiy Turkistonni boshqarish maqsadida imperator Aleksandr II ning 1867-yilgi farmoni asosida tashkil etildi va Markaziy Osiyoda Rossiya hukmronligini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Rossiya imperiyasi XIX asrda Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya kabi dunyoning qudratli davlatlari qatorida yirik mustamlakachi davlat sifatida tanildi. Boltiq dengizidan Kavkaz tog'larigacha, Ukraina dashtlaridan Uzoq Sharq va O'rta Osiyogacha cho'zilgan keng hududlarida ikki boshli burgut (Shahzoda Ivan III-Vizantiya imperatori Sofiya Paleologga 1473-yilda uylanishi munosabati bilan ikki boshli burgut ramz sifatida o'zlashtirilgan) tasvirlangan oq-yashil bayroq hukm surardi. Rossiya Polsha, Finlyandiya, Boltiqbo'yi davlatlari, Kavkaz o'lkasi, Boshqirdiston, Sibir va Qalmoq yurtlarini o'z nazoratiga olgan edi. Hududi bo'yicha Rossiya o'z zamonida Britaniya (13 million kv.km) va Fransiya (11 million kv.km) kabi davlatlarni ortda qoldirdi [6.-B.229]. Masalan, Rossiyaning faqatgina Sibir hududi Britaniya mustamlakalari bilan tenglashgan. Turkiston general-gubernatorligi esa hududiy ko'lam jihatidan Fransiya, Germaniya va Avstriya-Vengriya imperiyalarining umumiy maydoniga teng edi.

Yevropaning ilg'or jamoatchiligi XIX asr oxirida Rossiyani "beadad miqdordagi mulk o'g'risi", deb ta'riflab, "hisob-kitob vaqti kelganda, u bu mulklarni o'z egalariga qaytarishga majbur bo'ladi", deb bashorat qilgan edi. Ularning bashoratlari qaysidir ma'noda o'z aksini topdi, ammo to'liq amalga oshirilishi uchun, asr kerak bo'ldi. Rus imperiyasida 300 yil muqim o'rnashgan Romanovlar sulolasi 1917-yil



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> December, 2024

27-fevralda, rus sotsial-demokratlari, konstitutsion demokratlar va ijtimoiy inqilobchilar tomonidan qulatildi **[15.-B.6]**.

Markaziy Osiyo xalqi qadimgi davrdan to Chor Rossiya mustamlakasigacha bo'lgan davrda, o'z yurtini hech qachon shundoqqina osonlik bilan berib yubormagan. Masalan, Ahamoniylarga qarshi To'maris, Shiroq, Aleksandr bosqiniga qarshi Spitamen, Mo'g'ullarga esa Jaloliddin, Temurmaliq kabi xalqning faollari bosh ko'targan. XIX asrga kelib esa harakatlar biroz shiddatliroq tus oldi. Chor Rossiyasining Turkiston xalqlariga qarshi olib borgan mustamlakachilik va ulug' davlatchilik siyosati, tabiiy ravishda, mahalliy aholining o'z erkinligi va milliy mustaqilligi uchun kurashga undadi. Chorizm tomonidan asoratga solingan xalqlar, bosqinchilikning ilk kunlaridanoq, o'z huquq va erkinliklari uchun muqaddas kurash olib borishni boshladilar.

Bu kurashning yorqin misollari sifatida quyidagi voqealarni keltirish mumkin: 1856-yilda Sirdaryoda Jonxo'ja Nurmuhhammad boshchiligidagi qo'zg'olon, 1868-yilda Samarqand mudofaasi va Shahrisabz bekligidagi harakatlar, 1870-yilda Mang'ishloq qirg'izlarining isyonlari, 1871-yilda Sirdaryo viloyatida Eshon Eshmuhammad rahnamoligida bo'lib o'tgan chiqishlar va Farg'onada Yetimxon boshchiligidagi qo'zg'olonlar, 1872-yilda Chirchiqdagi isyonlar; 1872-1876-yillarda Po'latxon boshchiligida Qo'qonda ko'tarilgan qo'zg'olon; 1885-yilda Darveshxon yetakchiligidagi harakatlar, 1892-yildagi Toshkent qo'zg'oloni va 1898-yilda Andijonda Dukchi Eshon rahbarligida amalga oshirilgan isyon. Shuningdek, 1916-yilda Jizzaxda yuz bergan xalq harakatlari ham Turkiston xalqlarining bosqinchilikka qarshi milliy ozodlik kurashining muhim epizodlaridan biridir **[12.-B.537]**.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda bosqinchilarga qarshi noroziliklarning soni ortib bordi. 1887-1897-yillar oralig'ida Farg'ona, Samarqand va Sirdaryo hududlarida mustamlakachilar idoralariga qarshi 668 marta hujum sodir bo'lgan bo'lsa, 1897-1917-yillar mobaynida bu raqam 4922 marta isyon holatini ko'rsatgan. Ushbu faktlar milliy ozodlik harakatlarining keng ko'lamliligi va davomiy xarakterga ega bo'lganligini tasdiqlaydi.

Aynan shu davrda "Jadidlar" Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turib, o'z xalqining siyosiy, madaniy va iqtisodiy mustaqilligini qo'lga



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> December, 2024

kiritishga intildilar. Ular ta'lim va ma'rifat orqali milliy ongni uyg'otishga urindilar. Jadidlar Romanovlar sulolasining ag'darilishi va bolsheviklar hokimiyatining kuchayishi davrida, qisqa muddat bo'lsa-da, siyosiy o'zgarishlardan foydalangan holda Turkiston muxtoriyatini e'lon qildilar. Ammo bu harakatni bolsheviklar zo'ravonlik bilan bostirdi.

Jadid atamasi birinchi marta Turkiya turklarida Sulton Salim III davrida (1739-1802) paydo bo'ldi. Avstriyaga elchi yuborilgan Abubakr Ratib afandi o'zining shohga yo'llagan xatlarida, ko'rgan idora tizimini "Nizomi jadid" deb atagan. 1789 - yildagi Fransuz inqilobidan so'ng, yangi tizim "Fransiya nizomi jadidi" deb atalgan [19]. Ushbu davrda "Nizomi jadid" atamasi askariy tizimning yevropalashtirilishi, shuningdek ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirishga yo'naltirilgan o'zgarishlarni anglatardi. Shu tariqa, jadid atamasi yangilikka intiluvchi va zamonaviy g'oyalarni ifodalovchi tushuncha sifatida ishlatilgan.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlariga kelib, Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng ko'lamda rivojlana boshladi. «Jadid» atamasi arab tilida "yangi usul" degan ma'noni anglatadi. Ushbu harakat avvaliga madaniy-ma'rifiy yo'nalishda bo'lib, an'anaviy eski maktablarning murakkab o'qitish tizimiga qarshi yangi, osonroq va samaraliroq tovush usuliga asoslangan ta'lim uslubini joriy etish bilan boshlangandi.

Biroq jadidchilik faqatgina ta'lim sohasidagi islohotlar bilan cheklanib qolmadi. Bu harakatning asosiy maqsadi xalqni milliy ong va o'zlikni anglashga chorlash, turkislom qadriyatlarini asosida milliy huquqiy munosabatlarni shakllantirish edi. Shu bilan birga, jadidlar taraqqiyotga erishish, milliy ma'rifatni rivojlantirish hamda mustaqillikka erishish kabi yuksak maqsadlarni ham o'z oldilariga qo'ygandilar.

Bu jihatlar jadidchilikni oddiy bir ta'limiy islohotdan yuksak ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakatga aylantirdi. Huddi shunday harakat faollaridan Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovlardir. Quyida ular haqida yoritilgan.

Behbudiy (Mahmudxo'ja Behbudiy) - O'zbek jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, yozuvchi va dramaturg. Ilm-fan va ta'limni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Behbudiy tarjimai holini yoritishda Hoji Muinning 1922-1923-yillarda o'zi muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi" (1920), "Zarafshon" gazetalarida chop etilgan maqolalari muhim ahamiyatga ega [26.-B.19]. Aynan



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> December, 2024

bugungi kundagacha e'lon qilingan tadqiqotlarda Hoji Muin ma'lumotlari asos qilib olinadi. Hoji Muin uni 1873-yilning 17-yanvarda (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida diniy olim oilasida dunyoga kelganligini ta'kidlaydi [9.-B.7]. Ammo oxirgi olib borilgan tadqiqotlarga tayanadigan bo'lsak, Behbudiy tug'ilgan sana va joyi biroz boshqacharoq ko'rsatilmoqda. Taniqli olim Sirojiddin Ahmedovning ta'kidlashicha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yil 30-yanvar payshanba kuni Samarqand shahrining Yomini mahallasida tavallud topgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja og'li turkistonlik, Ahmad Yassaviy avlodlaridan, ona tomonidan bonosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod hukmronlik qilgan davrda Samarqandga ko'chib kelgan. Behbudiy 6-7 yoshlarda tog'asi Muhammad Siddiq huzurida o'qib savod chiqaradi, otasidan esa Qur'ondan saboq olib, qisqa muddatda qorilik martabasiga erishadi. 15 yoshida yana bir tog'asi Mulla Odil mudarrislik qilgan madrasada tahsilni davom ettiradi natijada u arab tili grammatikasi, aqida va shariat qonunlari bo'yicha bilimlarni kengaytiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 18 yoshidan qozixonada mirzalik qilib, keyinchalik qozi va mufti darajasiga ko'tarilgan. 1899-1900 yillarda haj safariga chiqqanida Arabiston, Misr va Turkiyani kezib chiqqan. Ushbu safar davomida u zamonaviy ta'lim tizimini (jadid usuli) joriy etish fikrini yanada mustahkamlagan. Behbudiy Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy va Rajabamin qishlog'ida Abdulqodir Shakuriylar bilan birgalikda yangi usul maktablarini ochgan.

1903-1904 yillarda Behbudiy Qozon va Ufa shaharlariga safar qilib, u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishgan va tatar ziyolilari bilan aloqalar o'rnatgan [23.-B.54]. Keyinchalik u yangi maktablar uchun o'quv darsliklarini yaratishga kirishgan.

Behbudiy shaxsiy "Nashriyoti Behbudi" nomli nashriyotini tashkil qilgan. Shuningdek, u "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalining asoschisi va muallifi bo'lgan. Bu nashrlar orqali u millatning ma'rifati va yangilanishiga xizmat qilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining millat ma'rifati va ijtimoiy yangilanish yo'lida yozgan asarlari bilan O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan. Uning 1909-yilda yozilgan "Padarkush" dramasi 1989-yilda "Sharq yulduzi" jurnalida qayta nashr



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econfséries.com](http://econfséries.com)

20<sup>th</sup> December, 2024

etilgan (1989, 7-son), bu asar o'sha davrdagi milliy uyg'onish harakati va ijtimoiy muammolarni o'zida aks ettirgan.

“Ehtiyoji millat” maqolasi ham 1989-yilda “Sovet O'zbekistoni” gazetasida chop etilgan bo'lib, Behbudiyning millatning zamonaviy ta'lim va yangilanishga bo'lgan ehtiyojlarini yaqqol ko'rsatib beradi.

1992-yilda esa uning “Bayoni haqiqat” maqolasi “Fan va turmush” jurnalining 5-sonida e'lon qilinadi. Bu asarda Behbudiyl ilm-fan va haqiqiy ma'rifatga e'tibor qaratgan va millatning rivojlanishi uchun ilmiy tafakkurni tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan.

Behbudiyning yosh avlodga murojaatlari ham keng qamrovli. U “Yoshlarga murojaat” va “Ikki emas, to'rt til lozim” kabi maqolalari orqali yoshlarning ko'p tilli bo'lishi va dunyoqarashlarini kengaytirishga da'vat etgan. Bu maqolalar 1994-yilda “Tafakkur” jurnalida chop etilgan (1-son).

Behbudiyl ijodining eng muhim jihatlaridan biri uning tanlangan asarlar to'plami bo'lib, u ikki marta nashr etilgan. “Tanlangan asarlar” to'plamining birinchi nashri 1997-yilda, ikkinchisi esa 1999-yilda “Ma'naviyat” nashriyoti tomonidan chop etilgan. Bu to'plam uning ijodiy merosini to'liqroq o'rganish imkoniyatini taqdim etadi. Behbudiyl ijodi va maqolalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan va millat tarixi va ma'naviy merosining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati 1906-yildan boshlangan bo'lib, u Nijniy Novgorodda o'tkazilgan “Rusiya musulmonlari ittifoqi” qurultoyida qatnashgan. 1917-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlari qurultoyida faol ishtirok etgan va u yerda musulmonlar o'rtasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiqib, o'lka musulmonlar sho'rosining raisi etib saylangan.

1917-yil 26-noyabrda Qo'qonda o'tkazilgan 4-favqulodda qurultoyda Behbudiyl “Turkiston muxtoriyati” e'lon qilinganidek, uning g'oyaviy asoschilaridan biri edi. Sho'rolar tomonidan muxtoriyatning bostirilishi Behbudiyni chuqur xafa qiladi va u Samarqandga qaytadi, keyinchalik Toshkentda sho'rolar hukumati bilan muzokara qilishga urinadi, ammo bu harakatlari muvaffaqiyatsiz yakunlanadi.

1919-yilda mamlakatdan chiqib ketish chog'ida Shahrizabzda Buxoro amirligi odamlari tomonidan qo'lga olinib, Qarshi zindoniga tashlanadi va hamrohlari bilan



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> December, 2024

birgalikda qatl qilinadi [25.-B.69]. Ushbu voqea Samarqandda bir yil o'tib ma'lum bo'lgan. Behbudiya atab Fitrat, Cho'lpon va Ayniy kabi shoirlar marsiyalar yozgan. 1926-1937-yillar davomida Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan atalgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov - Jadid ma'rifatparvar va yozuvchi, yangi usul maktablarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Munavvarqori Abdurashidxonov 1878-yil Toshkent shahrining Shayx Xovandi Tahur dahasi, Darxon mahallasidagi elga taniqli oilada dunyoga kelgan [10.-B.3]. Otasi madrasa mudarrisi Abdurashidxon Sotiboldixon Olimxon o'g'li o'qimishli shaxs bo'lgan. Onasi Xosiyatxon (1845-1931) Xonxo'ja Shorahimxo'jayev (1841-1941) ning qizi otinoyilik bilan shug'ullangan. Abdurashidxon va Xosiyat otin uch o'gil ko'rishgan. Kattalari A'zamxon (1872-1919), o'rtan chasi Muslimxon (1875-1954), kichigi Munavvarxon edi [24.-B.10]. Munavvarxon dastlabki ta'lim-tarbiyni onasidan olib, xat-savod chiqqach, o'sha davrda dovrug'i chiqqan Usmon domladan saboq oldi. Akalari ta'sirida voya ga yetdi. Qur'onni xatm qilib, 'qori' unvonini olgach, hali ilmga yaxshi kirib bora olmaganini fahmladi. 'Yunusxon podsho' madrasasida bir necha yil tahsil ko'rdi, biroq olgan ilmidan qoniqmadi. 1898 yilda Buxoroga borib, hadis, fiqh, ilmi tafsir va boshqa sohalar bo'yicha ta'limni davom ettirdi.

Munavvarqori Abdurashidxonov 1901-yilda usuli jadid maktabini ochib, maxsus o'quv dasturlarini tuzdi va darsliklar yozdi. 1903-yildan jadid maktablarida dars berib, "Adibi avval" (1907) va "Adibi soniy" (1907) alifbe kitoblarini nashr etdi. 1904-yildan ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotga aralasha boshladi, 1906-yildan "O'rta Osiyoning umrguzorligi" va "Taraqqiy" gazetalarida adabiy xodim bo'lib ishladi. 1908-yilda "Sabzazor" va "Yer yuzi" kabi kitoblarni nashr etib, yangi usuldagi maktablarda darslik sifatida qo'llandi.

Munavvarqori, shuningdek, "Jamiyati Imdodiya" (1909), "Turon" (1913), "Turkiston kutubxonasi" (1914), "Umid" (1914), "Maktab" (1914) va "Ko'mak" (1921) jamiyatlari va uyushmalarining asoschisi, muassis va raisi bo'lgan. Sho'rolar hukumati davrida Xalq dorilfununi sho'rosining raisi, Turkiston Maorif xalq komissarligi turk shu'basining ish yurituvchisi (1918) va Toshkent shahri maorif naziri sifatida faoliyat yuritgan. 1920 yilda Boku shahridagi Sharq xalqlari syezdida delegat va hay'ati a'zosi bo'lgan.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> December, 2024

U Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Maorif nozirlikida vaqf bo'limi boshlig'i (1920–1921), Toshkent shahri ijtimoiy tarbiya bo'limi mudiri (1921), Akademarkaz raisi (1922) va 1923–1925 yillarda Narimonov nomidagi pedagogika texnikumida muallim sifatida faoliyat yuritdi. 1927–1928 yillarda O'zbekiston osori-atiqalarni saqlash qo'mitasining Toshkent-Farg'ona bo'limida mas'ul kotib bo'lgan. Munavvarqori 1929-yil 6-noyabrda nohaq millatchilikda ayblanib, qamoqqa olinadi. U Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilinib, Vagankova qabristoniga dafn etilgan. Uning hayoti va faoliyati tarix sahnasida yorqin iz qoldirdi, ammo 1991-yilda u rasman reabilitatsiya qilindi.

Munavvarqorining qamoqqa olinishi, ijtimoiy adolatsizlik va siyosiy repressiyalar davrida sodir bo'lgan, uning asarlari va g'oyalari esa o'z davrida keng tarqalib, odamlar orasida ma'naviy uyg'onishga sabab bo'ldi. U o'z hayotini xalqining ma'rifati va taraqqiyoti yo'lida sarflab, o'ziga xos adabiy asarlar va yangi ta'lim tizimini yaratishga intilgan. Uning muallifligi ostida yaratilgan darsliklar va o'quv dasturlari esa o'z zamonasi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

### **Xulosa:**

O'zbekiston tarixi boy va sarmazmun bo'lib, qadimgi Turon zaminidan mustaqil davlatgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Bu hudud turli davlatlar, madaniyatlar va ilm-fan rivojlanishiga beshik bo'lib xizmat qilgan. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davri hamda mahalliy xonliklarning tanazzulidan saboq olib, O'zbekiston bugungi kunda o'z tarixiy ildizlariga asoslangan holda zamonaviy va mustaqil taraqqiyot yo'lida rivojlanmoqda.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar :**

1. A . Zamonov, N. Ismatova. O'zbekiston tarixi.T.: Respublika ta'lim markazi, 2022.
2. Akbar Zamonov,Alisher Egamberdiyev. Buxoro Amirligi Tarixi.T.:Tamaddun,2022.
3. Boboyev X. O'zbek davlatchiligi tarixi. I kitob. T.: Fan, 2004.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> December, 2024

4. Dr.Boymirza Xayit. Turkiston Rossiya va Xitoy oralig'ida. Yangi asr avlodi,2023.
5. Halim To'rayev. Buxoro Tarixi. Buxoro.Durdon,2020.
6. Hamdam Sodiqov, Narzulla Jo'rayev. O'zbekiston Tarixi (Turkiston chorizm mustamlakachiligi davrida).T.:Sharq,2011.
7. Ikromjon Kuzikulov.Qo'qon xonligi tarixi.Namangan,2014.
8. Istoriya Kazaxskoy SSR,I,M.:1957.
9. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. Z. Abdirashidov. T.:Yoshlar,2022.
10. Jadidlar. Munavvarqori Abdurashidxonov. S. Xolboyev.T:Yoshlar, 2022.
11. M.Mahmudov, U.Sheripov. Xiva Xonligi tarixi. Urganch.2013.
12. Misr o'g'li Qodir. Moskva zulmi, II-jild, Istanbul, 1972.
13. Murtazayeva R. O'zbekiston tarixi.Toshkent,2004.
14. Q. Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxanova.O'zbekiston Tarixi. T.:Iqtisod-Moliya,2006.
15. Qahramon Rajabov, Akbar Zamonov. O'zbekiston Tarixi. T.:G'afur G'ulom,2017.
16. Shamsudinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. I kitob.T.:Sharq,2010.
17. T.X.Jumayev.O'zbekiston tarixi.Rivojlanish strategiyasi. T.:Adast poligraf,2022.
18. Xamdam Sodiqov. Amir Temur saltanatida xavfsizlik hizmati.T.:Art flex,2020.
19. Xaydarova Dilorom (2024). Jadidchilikning ijtimoiy-ma'rifiy harakat sifatida paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari. Interpretation and researches, 2 (21), 53-59.
20. Xojiakbar Ibrohim. Islom tarixida turkiy saltanatlar.T.:Qamar media,2022.
21. Zohid Madrahimov.Tarixiy Toponimika. T.:Navro'z,2017.
22. Бартольд В. В. Очерк истории туркменского народа. Сочинение. Т. II. Ч. I, М., "Наука", 1963.
23. Бехбудий Махмудхўжа. Танланган асарлар.T.: Маънавият, 1999.
24. Мунаввар кори Абдурашидхонов.Танланган асарлар .T.: Маънавият, 2003.
25. Наим Каримов. Махмудхўжа Бехбудий.T.: 2010.
26. Ҳожи Муин. Танланган асарлар.T.: Маънавият, 2005.